

**YOSH BUXTOROLIKLARNING DAVLAT BOSHQARUV HUQUQIGA OID
ISLOHOTCHILIK QARASHLARI**

Turdiyev Abdulfayz Sherali o‘g‘li

Qarshi xalqaro universiteti, Muhandislik va pedagogika fakulteti,
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi 3-bosqich talabasi.

Murojat uchun: Tel.+99897-777-71-62.

Abdulfayz2022@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14799774>

Anontatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Yosh buxtoroliklarning davlat boshqaruv huquqiga oid islohotchilik qarashlari atroflicha tahlil qilinadi. Yosh buxtoroliklar Buxoro amirligi boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish zaruratini ilgari surgan holda, davlat hokimiyatini kuchaytirish va fuqarolik boshqaruvida qonun ustuvorligini ta’minalashga qaratilgan takliflar ishlab chiqqan. Maqolada ularning boshqaruv huquqining samaradorligini oshirish, shariat huquqini zamonaviy boshqaruv tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish va xalq farovonligini ta’minalashga doir qarashlari muhokama qilinadi. Shu bilan birga, Yosh buxtoroliklarning Sharq va G‘arb davlat boshqaruvi tajribalaridan ilhomlanib, mamlakatni zamonaviy boshqaruv tizimiga olib chiqish maqsadida amalga oshirgan amaliy ishlari va ularning huquqiy poydevori o‘rganiladi. Ushbu tadqiqot Yosh buxtoroliklarning davlat boshqaruv huquqi sohasidagi hissasini yoritishga va uning tarixiy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Yosh buxtoroliklar, davlat boshqaruv huquqi, islohotchilik qarashlari, modernizatsiya, Buxoro amirligi, shariat huquqi, qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvi tizimi, huquqiy islohotlar, milliy uyg‘onish.

**РЕФОРМАТОРСКИЕ ВЗГЛЯДЫ МОЛОДЫХ БУХАРЦЕВ НА ПРАВО НА
ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ**

Аннотация. В данной статье подробно анализируются реформистские взгляды младобухарцев второй половины XIX - начала XX века относительно права государственного управления. Молодые бухарицы выдвинули необходимость модернизации системы управления Бухарского эмирата, разработали предложения, направленные на укрепление государственной власти и обеспечение законности в гражданском управлении. В статье рассматриваются их взгляды на повышение эффективности административного права, гармонизацию законов шариата с современными

административными принципами и обеспечение общественного благосостояния. Одновременно изучаются практические работы младобухарцев, вдохновленные опытом восточного и западного государственного управления, направленные на приведение страны к современной административной системе, и их правовые основы. Целью данного исследования является освещение вклада младобухарцев в области права государственного управления и раскрытие его исторического значения.

Ключевые слова: Молодые бухарцы, право на управление государством, реформистские взгляды, модернизация, Бухарский эмират, шариат, верховенство закона, система государственного управления, правовые реформы, национальное пробуждение.

REFORMIST VIEWS OF YOUNG BUKHARA RESIDENTS REGARDING THE RIGHT TO STATE GOVERNANCE

Abstract. In this article, the reformist views of the Young Bukharans in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century regarding the right to state administration are analyzed in detail. Young Bukharans put forward the need to modernize the management system of the Bukhara Emirate, developed proposals aimed at strengthening state power and ensuring the rule of law in civil administration. The article discusses their views on improving the effectiveness of administrative law, harmonizing Sharia law with modern administrative principles, and ensuring public welfare. At the same time, the practical works of Young Bukharans, inspired by the experiences of Eastern and Western state administration, carried out in order to bring the country to a modern administrative system, and their legal foundations are studied. This study is aimed at highlighting the contribution of Young Bukharans in the field of public administration law and revealing its historical significance.

Key words: Young Bukharans, the right to govern the state, reformist views, modernization, the Emirate of Bukhara, Sharia law, the rule of law, the system of state administration, legal reforms, national awakening.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida, butun Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan Buxoro amirligi, tarixiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar davrini boshdan kechirdi. Buxoro amirligi davlat boshqaruvi tizimi asosan feodal tuzumga asoslanib, davlat va jamiyatni boshqarishning eski usullaridan foydalanilardi. Ammo o‘sha davrda o‘zgarishlar va yangiliklar talab qilindi. Bu o‘zgarishlar nafaqat tashqi siyosat, balki ichki boshqaruv tizimida ham izlanishlar olib keldi. Bu jarayonning bir qismi sifatida, yosh buxoroliklar harakati yuzaga keldi.

Yosh buxoroliklar, asosan, harbiy, ilmiy, madaniy va siyosiy sohalarda o‘z bilim va tajribalarini yangiliklar yaratish uchun sarfladilar. Ularning maqsadi, nafaqat Buxoro amirligini modernizatsiya qilish, balki davlat boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish edi.

Ushbu harakatning markaziy g‘oyalari o‘zgartirishlar, islohotlar va davlat boshqaruvini yanada samarali qilishga qaratilgan edi. Bu yoshlar, zamonaviy boshqaruv tamoyillari va ilm-fanning yutuqlarini o‘z mamlakatlariga tatbiq etish orqali, o‘sha davrdagi eski tizimga qarshi turishga harakat qildilar. Yosh buxoroliklar - Buxoro amirligidagi jadidlar partiyasi (firqasi).

Dastlab „Tarbiyai atfol“ („Bolalar tarbiyasi“) maxfiy jamiyat shaklida tuzilgan. 1910-20-yillarda „Yosh buxoroliklar“ partiyasi deb atalgan. Unga taraqqiyat parvar ziyorilar, savdogarlar va shahar kambag‘allari vakillari kirgan. Ular boshida mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o‘tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o‘rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo‘yish tarafdoi bo‘lgan. Abdulvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Sadriddin Ayniy, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev (Usmonxo‘ja), Otaulla Xo‘jayev, Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Homidxo‘ja Mehriy, Muso Saidjonov, Mirzo Siroj Hakim Yosh buxoroliklarning dastlabki tashkilotchilari edi. Keyinchalik uning faoliyatida Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev va Muhiddin Mansurov katta rol o‘ynashdi. Istanbulda ta’lim olgan ko‘plab buxoroliklarning yurtiga qaytishi bilan maorif ishlari yana jonlandi. 1914-yildan boshlab Yosh buxoroliklar ma’rifatchilikdan siyosat sohasiga o‘tdilar. Yosh buxoroliklar amirlik tuzumini isloh qilish to‘g‘risida dadil fikrlar bilan maydonga chiqishdi. Ularning ijtimoiy, siyosiy, ma’rifatparvarlik faoliyati partiya mazmunida endilikda yangicha maqsad va yo‘nalish kasb etdi. Xususan, yosh buxoroliklar davlat boshqaruvi va huquqiy tizimni modernizatsiya qilishda, qonun ustuvorligini ta’minalashga,adolatli boshqaruv tizimini yaratishga, hukumatning samaradorligini oshirishga va xalq farovonligini yaxshilashga qaratilgan g‘oyalari ilgari surdilar. Ular davlat boshqaruvini faqat hukmdorlarning ixtiyoriga bo‘ysundirishdan tashqari, qonuniy asoslar va umumxalq manfaatlarini nazarda tutish zarurligini ta’kidlashdi. Shu sababli, Yosh buxoroliklarning davlat boshqaruv huquqiga oid qarashlari nafaqat o‘sha davr uchun, balki hozirgi kunda ham muhim tarixiy ahamiyatga ega. Ularning qarashlari nafaqat davlat boshqaruvi tizimini, balki uning huquqiy poydevorini ham yangilashga bo‘lgan intilishlarini namoyon etadi. Bu maqolada Yosh buxoroliklarning davlat boshqaruvi huquqiga oid islohotchilik qarashlari, ularning g‘oyalari va bu g‘oyalari asosida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu qarashlarning o‘zbek davlat boshqaruvining rivojlanishiga qo‘sghan hissasi ham o‘rganiladi. Yosh buxoroliklarning islohotchilik qarashlarida o‘zgartirishlar ikki asosiy yo‘nalishdan iborat edi:

birinchisi, Buxoro amirligi davlat boshqaruvining huquqiy asoslarini takomillashtirish; ikkinchisi, hukumatning ichki tuzilmasida zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish. Bu ikki yo‘nalish, ularning harakatini o‘sha davrda Buxoro amirligi hukumatining asosiy qurilishlari va jamiyatining rivojlanishiga muhim ta’sir ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan edi. Siyosiy islohotlar va huquqiy tizim: Buxoro amirligi hududida huquqiy tizimda shariat qonunlari ustunlik qilgan. Shariatga asoslangan qonunlar jamiyatda yuqori sinflar (feodallar, din arboblari)ning manfaatlarini himoya qilgan. Yosh buxoroliklar, bu qonunlarni zamonaviy huquqiy tamoyillarga asoslab isloh qilishni maqsad qilganlar. Ular, o‘z g‘oyalarni xalqaro huquq tamoyillari, modernizatsiya va demokratik boshqaruv tizimlariga asoslab, zamonaviy davlat qurishni taklif etdilar. Yosh buxoroliklar, davlat boshqaruvi tizimini zamonaviylashtirishda huquqiy islohotlarni amalga oshirishning ahamiyatini juda yaxshi tushunishardi. Ular, mamlakatda huquqiy tizimning samarali ishlashi uchun yangi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarni joriy etish zarurligini ilgari surdilar. Buxoro amirligining o‘z vaqtida mavjud bo‘lgan shariat qonunlari va yerli an’anaviy huquqiy tartiblarining davlat boshqaruvidagi roli muhim bo‘lgan bo‘lsa-da, yosh buxoroliklar bu qonunlarni zamonaviy huquqiy tizim bilan uyg‘unlashtirishni ta’minlashni xohlashgan. Ular islohotlarni amalga oshirishda, shariatga asoslanish zarurati bilan birga, xalqaro huquq va demokratik tamoyillarni ham hisobga olishni ta’kidladilar. Yosh buxoroliklar, davlat boshqaruvidagi islohotlar orqali qonun ustuvorligini ta’minlashga katta ahamiyat berdilar. Ular, amaldagi huquqiy tizimni, davlatning barcha jabhalarida, jumladan, sud tizimi, ma’muriy boshqaruv va iqtisodiy sohalarda ham islohotlar qilish zarurligini ta’kidlashdi. Ularning asosiy maqsadi – jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta’minlash va barcha fuqarolar uchun tenglikni yaratish edi. Yosh buxoroliklar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalari, shuningdek, davlat va xalq o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashni, fuqarolar huquqlarini himoya qilishni va davlat boshqaruvining shaffofligini ta’minlashni o‘z ichiga olgan. Yosh buxoroliklar, nafaqat davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, balki mustaqil va o‘z hukumatini yaratish zaruratini ham ilgari surdilar. Ular Buxoro amirligi va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida milliy mustaqillikni ta’minlash uchun hukumat tizimining zamonaviy, demokratik va xalq manfaatlariga asoslangan bo‘lishi kerakligini ta’kidlashgan. Yosh buxoroliklar, milliy mustaqillik va demokratik boshqaruvni amalga oshirishni o‘zlarining asosiy siyosiy g‘oyalari sifatida ilgari surdilar. Milliy mustaqillik g‘oyasi yosh buxoroliklar tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar bilan birga amalga oshirilishi kerak edi. Ular, o‘zining zamonaviy siyosiy tizimi va huquqiy asoslariiga ega bo‘lgan mustaqil davlatni tashkil qilish uchun harakat qilishdi.

Ularning g‘oyalari, G‘arb davlatlarining demokratik boshqaruv va huquqiy tizimi bilan bevosita bog‘liq edi. Bu harakat, asosan, mahalliy xalqning o‘z taqdirini belgilash huquqini qaytarib olishni maqsad qilgan va mustaqillikka erishish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Yosh buxoroliklarning davlat boshqaruvi va huquqiy islohotlarga ta’siri, o‘sha davrdagi islohotlarga bevosita aloqador bo‘lmasa ham, ularning qarashlari va g‘oyalari katta tarixiy ahamiyatga ega edi. Ularning ilgari surgan fikr-mulohazalari, o‘sha davrda davlat boshqaruvini yangilash va isloh qilishga qaratilgan bo‘lsa-da, keyinchalik mustaqil O‘zbekiston Respublikasining huquqiy tizimiga ta’sir ko‘rsatgan. Yosh buxoroliklar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalari, Buxoro amirligining davlat boshqaruvi tizimida, hamda keyingi siyosiy va ijtimoiy islohotlar davomida namoyon bo‘lgan. Ularning qarashlari, hozirgi kunda ham o‘zbek davlat boshqaruvining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Milliy mustaqillik, qonun ustuvorligi va adolatli boshqaruv tamoyillari bugungi kundagi siyosatning asosiy elementlariga aylangan. Yosh buxoroliklar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalari, huquqiy islohotlarning muhim bir bosqichi bo‘lib, ular o‘z vaqtida amalga oshirilmasa ham, o‘zbek xalqining siyosiy tafakkurini shakllantirishda katta ta’sir ko‘rsatdi. Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligi va yosh buxoroliklar harakati tarixiy jarayonlar, siyosiy islohotlar va davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan Markaziy Osiyo tarixining muhim va qiziqarli qismidir. Yosh buxoroliklarning o‘z vaqtida amalga oshirmoqchi bo‘lgan islohotlari, davlat boshqaruvi va siyosiy qarashlari nafaqat Buxoro amirligi, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar uchun muhim rol o‘ynagan. Ular o‘z g‘oyalari orqali an‘anaviy siyosiy tizimni modernizatsiya qilishga intilgan va mintaqadagi davlat boshqaruvini tizimiga yangi qarashlar olib kirishga harakat qilgan. Shu bilan birga, yosh buxoroliklarning islohotlaridan ko‘plab omillar ta’sir o‘tgani, jumladan, ichki siyosiy muammolar, tashqi ta’sirlar, va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar mavjudligini ham inobatga olish kerak. Ularning g‘oyalari ko‘plab muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsa-da, ayrim holatlarda bu islohotlar to‘xtab qolgan yoki amalga oshmagan. Ammo, yosh buxoroliklarning harakati va siyosiy qarashlari Buxoro amirligining siyosiy va huquqiy tizimini o‘zgartirish yo‘lidagi muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sabablarini tushunish uchun zarurdir. Buxoro amirligidagi yosh buxoroliklar harakati, shuningdek, davlat boshqaruvi va islohotlar haqida chuqur tahlil o‘tkazish, nafaqat o‘sha davrning siyosiy kontekstini, balki bugungi kun siyosiy qarashlarini ham tushunishga yordam beradi. Ushbu harakatlar, o‘z vaqtida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi zarur ekanligini ko‘rsatgan va bugungi kunda ham siyosiy yangilanishlar va islohotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shu sababli, yosh buxoroliklarning islohotlariga oid ilmiy tahlillar, ular tomonidan ilgari surilgan siyosiy va huquqiy g'oyalar, davlat boshqaruvining yangilanishi uchun nima sababdan kerak bo'lgani haqida o'rghanishlar davom ettirilishi zarur. Bu nafaqat tarixiy tafakkur, balki o'zgarishlar va siyosiy islohotlarni amalga oshirish uchun muhim tajriba va bilim manbai sifatida qimmatli ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Yosh buxoroliklar – Vikipediya https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yosh_buxoroliklar
2. Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi – Tarix • Sinaps <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/yosh-buxoroliklar-buxoro-amirligining-tugatilishi>
3. Turkum:Yosh buxoroliklar – Vikipediya https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Turkum:Yosh_buxoroliklar
4. Oyina <https://oyina.uz/uz/article/1223>